

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
ANIQ VA TABIIY FANLAR FAKULTETI
BIOLOGIYA VA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYALARI
KAFEDRASI QOSHIDA O'TKAZILGAN ZAKOVAT – INTELLEKTUAL
MUSOBAQASI NATIJALARI
BAYONNOMASI

31.10.2024 y.

Denov tuman

Qatnashdilar:


1. Kafedraning biologiya fani professor-o'qituvchilari
2. B.Iraliyev - Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani
3. Sh.Abdullayev - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

Kun tartibi:

1. "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasida Zakovat intellektual musobaqasini o'tkazish.

Eshitildi:

Kun tartibidagi masala bo'yicha Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani B.Iraliyev tomonidan talabalarning dunyoqarashini rivojlantirish va ularning kreativ yondashuvini takomillashtirish uchun Zakovat – intellektual musobaqasini o'tkazish muhimligini ta'kidladi.



Kun tartibidagi masala bo'yicha Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida b.f.f.d. (PhD) M.K. Hamroyeva so'zga chiqib Bugungi kunda Yurtimizda intellektual musobaqalarga bo'layotgan e'tibor hamda Prezidentimiz tomonidan mazkur sohaning e'tirof etilayotgani intellektual musobaqalarni o'tkazish hozirgi zamon talabi ekanligini ta'kidladi.

Shundan so'ng Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari texnologiyalari



kafedrasida o'tkazilayotgan "Zakovat – Bilimdonlar kubogi" intellektual musobaqasi boshlanishi oldidan kafedra o'qituvchisi b.f.n M.A.Xalmuratov so'zga chiqib musobaqa nizomini Kafedra Professor-o'qituvchilariga va yig'lish a'zolariga tanishtirib o'tdi. Intellektual musobaqani

Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari texnologiyalari kafedrasida barcha talabalarni qamrab olishi shuningdek mazkur musobaqa orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish to'g'risida gapirdi

Musobaqa Koordinatorlari

- 1. Mardonov Sherzod**
- 2. Ergashev Azamat**
- 3. Boboxonov Muzaffar**

"Zakovat – Bilimdonlar kubogi" bellashuvi davomida

Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari texnologiyalari kafedrasida Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari hamda mazkur yo'nalish magistratura talabalari, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi" talabalari va Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetining Moliya yo'nalishi talabalari ishtirok etishdi. Qizg'in kurashlarga boy bo'lgan musobaqada 3-bosqich 14QX-2022 guruh talabalaridan tashkil topgan "Effekt" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi va Kafedra Professor-o'qituvchilarining estalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Musobaqa davomida 10 ta savol o'ynaldi va quyidagi natijalarga erishildi:

T/r	Jamoa nomi	To'plagan bali	O'rni
1	Effekt	7 ball	1-o'rin
2	The best	6 ball	2-o'rin
3	Finansier	5 ball	3-o'rin
4	Materiya	4 ball	
5	Bilimdon	3 ball	
6	Tomoshabin	2 ball	
7	Bioleon	2 ball	
8	Biostars	2 ball	
9	Tibet	2 ball	
10	Creativ	1 ball	

Qaror qilindi:

1. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari texnologiyalari kafedrasida talabalar o'rtasida "Zakovat – Bilimdonlar kubogi" intellektual musobaqasi o'tkazilgan deb topilsin.

2. Intellektual musobaqada qatnashgan jamoalarga estalik sovg'alari berilsin. Musobaqa davomida g'oliblik va sovrindorlikni qo'lga kiritgan quyidagi jamoalar rag'batlantirilsin.

1. Effekt

2. The best

3. Finansier

Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari
texnologiyalari

Kotiba:



dots. M.K.Hamroyeva
D.G'. Sodiqova